



«Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki
Joint-stock commercial bank «Microcreditbank»
Акционерно-коммерческий банк «Микрокредитбанк»

100096, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Lutfiy ko'chasi 14
Tel.: +998 71 207 46 51 (1104), Aloqa markazi: 1285
E-xat: mikrokreditbank@exat.uz www.mkbank.uz

BUYRUQ

«17» Yanvar 2023 y.

№ 5

O'zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasi hamda “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruvning 2021 yil 2 avgustdagи “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi 55-3-sonli qaror bilan tasdiqlangan Nizomining 6-bandiga asosan,

B U Y U R A M A N:

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha Xarid komissiyasining yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha komissiya raisi etib Boshqaruv raisi o‘rinbosari **I. Djumaniyazov** tayinlansin.
3. Komissiya raisi ishda bo‘lmaganida (xizmat safari, mehnat ta‘tili va mehnatga layoqatsizlik davrida) xaridlar jarayonlarini muvofiqlashtirish, xaridlari bilan bog‘liq tegishli hujjatlarni imzolash vakolatini boshqa (o‘rindosh) Boshqaruv raisi o‘rinbosariga o‘tkazishda Boshqaruvning amaldagi buyrug‘i bo‘yicha rahbarlik qilish taqsimoti inobatga olinsin.
4. Komissiya a’zolaridan biri boshqa ishga o‘tgan yoki bo‘shagan taqdirda mazkur tarkibga ularning lavozimiga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.
5. Belgilansinki, komissiya murakkab va yirik loyihalar bo‘yicha xaridlarni amalga oshirishda, shuningdek, boshqa holatlarda lozim deb topilganida bank xodimlari hamda jalg‘ etilgan mutaxassislar ishtiroyida baholash va ekspertlik ishchi guruhlarini tuzishi mumkin.
6. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazorat Boshqaruv raisi o‘rinbosari **I. Djumaniyazov** zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi



O.Butayev

Kelishuvchilar: M.Tirov, S.Salamov, M.Pulatova, F.Raxmanov, R.Sulaymonov, A.Xamidov, B.Allaniyazov, I.Djumaniyazov, I.Mamadjanov

<https://hujjat.uz/doc.jsp?id=2b2fb624-ddd7-42c3-8560-07c7198b3a52&pin=5XuBUjnQ>